

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 51 (66332)
2001 yil 21 dekabr, juma

Sotuvda erkin narxda

Mana, o'quv yilining ikkinchi choragi ham o'z nihoyasiga yetayapti.

Oldinda esa hal qiluvchi-uchinchi chorak turibdi.

Ikkinchi chorakda erishilmagan yutuqlariga bu chorakda harakat qilishni rejalashtirgan o'quvchilar ham talaygina. Buning uchun esa ta'til davomida yaxshi hordiq chiqarish ayni muddaodir.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'naviy va ma'rifiy ishlar boshqarmasi boshlig'i, gazetamizning tahrir hay'ati a'zosi Jamoliddin aka FOZILOV bilan telefon orqali bog'landik:

- Darvoqe, ta'til mobaynida maroqli hordiq chiqarish, foydali ishlar bilan shug'ullanish faqat yaxshiliklar olib keladi. Ta'tilda maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlari yetarli bo'ladi. Biz esa ularning vaqtlarini unumli o'tkazishga harakat qilamiz.

Bu boradagi ishlarimizni hozirdanoq boshlab yubordik. Kuni kecha «Prezident asarlari bilimdoni» Respublika ko'rik-tanlovini o'tkazdik. Unda har bir viloyatdan g'olib bo'lgan bittadan

o'quvchi ishtirok etdi.

O'quvchilarning javoblarini tinglar ekanmiz, ularning bilimdon, zukko ekanliklariga guvoh bo'ldik. O'z navbatida, ishtirokchilar uchun shahrimiz bo'ylab sayohat uyushtirildi...

Qishki ta'tilning ilk kunlaridan boshlab barcha viloyatlarda an'anaviy iqtidorli o'quvchilar anjumani o'tkaziladi. Unda o'quvchilar o'zlarining kasb-mahoratlarini sinab ko'radilar. Bundan tashqari, joylarda turli mavzularda ko'rik-tanlovlar, bellashuvlar o'tkazilishi mo'ljallanyapti.

Aziz bolajonlar, ta'tilingiz maroqli o'tishi uchun har bir tadbirda faol ishtirok eting.

«Tong yulduzi» gazetasining obunasiga kelsak, 2002 yilda ko'proq o'quvchilarni gazetaga jalb qilishga harakat qilaymiz. Har bir maktabning har bir sinfi hech bo'lmaganda bittadan «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lsa edi, gazetxonlarning soni yanada ko'paygan bo'lardi.

Feruza ODILOVA
yozib oldi.

BARCHAMIZ MASUL BOLAYLIK

Yong'in xavfsizligi oyigida bizning maktabimiz ham faol qatnashdi. Ushbu mavzuga atab darslar o'tildi, suhbatlar uyushtirildi. Bu darslarda ustozlarimiz bizlarga olovdan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanishimiz kerakligini uqtirdilar. Uka va singillarimizni uyda nazoratsiz qoldirmasligimiz kerakligini ham bilib oldik.

Chunki yong'in oqibatida ko'plab insonlar jabr ko'rishi, hatto insonlar nobud bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham biz hamma vaqt elektr chiroqlarini nazorat qilishimiz, gaz va dazmollarni vaqtda o'chirishimiz lozim.

Ana shundagina biz o'zimizni, o'z uyimiz va maktabimizni asraymiz. Barcha tengdoshlarimizga ham shuni maslahat beraman.

Nilufar SHODJONOVA,
Yunusobod tumanidagi
21- maktabning
9- litsey sinf o'quvchisi.

Tengdoshimiz

Sadoqat

Abduvaliyevani

ko'pchiliginiz yaxshi

taniysiz. Chunki uni

«O'zbekiston telekanali»

orqali ko'p ko'rgansiz.

«Maktublar - kabutarlar»,

«Yoz - o'tmoqda soz!», «Bu

ajab fasl», «Gulxan

sahifalarida» kabi

ko'rsatuvlarning

boshlovchisi...

U poytaxtimizdagi 304-

maktabning 5- «A» sinfida

a'lo baholarga o'qiydi. Bir

emas, bir necha fanlarga

qiziqadi. Yosh bo'lsa-da,

fikrlari teran, oldiga qo'ygan

maqsadlari sari intiluvchan

qiz. Sadoqat bilan yaqinroq

tanishish maqsadida uni

suhbatga chorladik:

- Mana, 4 yildirki

bolalar uchun

beriladigan

ko'rsatuvlarga

boshchilik

qilib kelarkansiz. Bu sohaga qanday kirib kelgansiz?

- Yodimda bor, bog'chaga

qatnab yurgan paytlarimdanoq

televizor orqali namoyish

etiladigan bolalarbop

ko'rsatuvlarni berilib

tomosha

qilardim. Keyinchalik

boshlovchilarning so'zlarini

yozib olib, ko'zguga qarab

takrorlaydigan, hatti-

harakatlariga taqlid

qiladigan bo'ldim.

Bir kuni buvijonim

Karomatxon aya haqida

ko'rsatuv tayyorlash uchun

uyimizga bir guruh

jurnalistlar kelishdi. Ular

menga she'r aytirishdi. Bor

«hunar»imni ishga solib,

«Buvijonim» nomli

she'rimni aytib berdim.

Shu-shu hayotim radio, televideniye bilan bog'lanib ketdi.

- Ko'cha-kuyda, maktabda, sinfda tengdoshlaringiz sizga

qanday qarashadi?

- Ko'cha-kuyda ham

ko'pincha tanib qolishadi-da,

«Ana, televizorda chiqadigan qiz

kelyapti», deyishadi. Ko'pchilik

dugonalarim menga havas

qilishadi. Biz ular bilan

juda ahilmiz, o'zaro

«sizlashib» gaplashamiz.

- Bilishimcha,

telejurnalistlik oson kasb

emas. Xizmat safarlari

ham ko'p bo'ladi. Siz esa

aynan shu kasbni

egallashni orzu

qilarkansiz. Bunga ota-

onangiz qanday

qarashadi?

- Telejurnalist bo'lish

nafaqat mening, ota-

onamning ham orzulari.

Shuning uchun ham ular

menga

barcha

sharoitlarni yaratib

berishyapti.

- Qaysi jurnalistlarga havas bilan qaraysiz va kimlarga o'xshashni orzu qilaysiz?

- Ustozim - Hafiza opa

Xolmatova, Tohir aka

Mullaboyevlarga,

jurnalistlardan Tolibjon aka

Isroilov, Munisa opa

Toshmatovalarga juda-juda

o'xshagim keladi Yana,

ulg'aygach elning nazaridan

qolmaslikni niyat qilaman.

- Samimiy niyatlaringiz

hamrohingiz bo'lsin,

Sadoqatxon!

Alisher Navoiy

nomidagi Respublika nafis

san'at litseyi 10- «G»

tarix sinfi o'quvchisi

Shahnoza

OYDINOVA

suhbat-

lashdi.



Men kelajakda jurnalist bo'lishni orzu qilaman. Siyosatga qiziqqanim bois siyosatchi jurnalist bo'lmoqchiman. Har qanday inson, qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z xalqiga biror foydasi tegishi lozim. Men uchun o'zbek xalqiga teng keladigan xalq yo'q dunyoda. O'zbek xalqi mehmondo'st xalqdir. Shunday xalqning ishonchini



ORZUIM . PARVOZIM MENIM

oqlash, bu eng katta baxt va savob bo'lsa kerak. Har bir inson hayotda kimgadir taqlid qiladi. Men esa oqilalikda, sabr-toqatda, aql-zakovatda, mehr-muruvvatda tengi yo'q onamga o'xshagim keladi. Men jurnalist bo'lsam rostgo'y, tanqidni ham, haqiqatni ham ochiq-oydin gapiradigan jurnalist bo'laman. Chunki xalq, jamiyat haqiqatgo'y jurnalistni yoqtiradi. Mening shaxsiy kutubxonam ham bo'ladi. U yerda adabiy, tarixiy, ma'rifiy, siyosiy kitoblari bo'lib, undan kattayu kichik foydalanadi. Xullas, orzularimni tugatib bo'lmaydi. Ularning

hammasini bittadan yozsak, qog'oz ham yetmasa kerak.

Zilola

RUSTAMOVA,
Toshkent shahri

Sobir Rahimov

tumanidagi

224- maktabning

9- «A» sinf

o'quvchisi.



Bizning maktabimizda ham iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. Ularning aksariyati adabiyotga qiziqadi. Shuning uchun ham maktabimizda «Na'matak» deb nomlangan adabiy to'garak mavjud. To'garakka yosh jurnalist Amrullo aka Karimov rahbarlik qiladilar. Ular bizga kerakli maslahatlar berib turadilar.

To'garakda faol o'quvchilar talaygina. Jumladan, Iroda Mo'minova, Dilfuza Tojiboyeva, Jo'rabek Shamsiyev, Bobur Qurbonovlarning ijodlari maqtovg'a loyiq.

Maktabimiz direktori Muqaddas opa ham bizning to'garagimizga qiziqish bilan qaraydilar. Ko'proq o'qishimiz, izlanishimiz kerakligi haqida uqtiradilar. Shuning uchun ham tinmay o'qiyapmiz, o'rganyapmiz.

Ahror YO'LDOSHEV,

Poytaxtimizdagi 213- maktab o'quvchisi.

USTOZGA BOG'LIQ EKAN

Ko'pchilik tengdoshlarim, «shu kimyo fanini hecham tushunolmayman-da, qiziqishim ham yo'q», deya nolib qolishadi. To'g'ri, kimyo ancha murakkab fan. Menimcha, bolalarda bu fanga qiziqish uyg'ota olish muallimlarning mahoratiga ham bog'liq. Kimyo fani ustozimiz - oliy toifali o'qituvchi Nazira opa Bahromjonova shogirdlari qalbga yo'l topa olgan, ularda faniga nisbatan qiziqish uyg'ota olgan insonlardan biri, desam mubolag'a bo'lmaydi. Nazira opa o'ta mehribon, shu bilan birga talabchan va qattiqqo'l ustozlar. Fanlarini misollar asosida qiziqarli o'tishga intiladilar. Shundanmi, eng sho'x va to'polonchi bolalarning diqqati ham ularda bo'ladi. Aksariyat shogirdlarining opa izidan borishga intilayotganlari ham shundan.

Ustozimiz maktab hayotida ham juda faollar. O'tkazilajak tadbir va kechalarimizga bosh-qosh bo'lib, bizdan qimmatli maslahatlarini ayamaydilar. Ko'pgina gazeta va jurnallarda opaning ilmiy maqolalari chop etiladi.

Nazira opa nafaqat fidokor ustoz, balki ikki qiz va bir o'g'ilni komil insonlar qilib tarbiyalab, o'z kasbiga yo'naltira olgan mehribon ona, suyuqli buvi hamdirlar.

Shu kunlarda kimyo fani bo'yicha ilmiy ishlarini tamomlash arafasidagi ustozimiz Nazira opaga oilaviy baxt, omadlar tilab qolamiz.

Nazokat UMAROVA,

Chilonzor tumanidagi 200 - lisey maktabning

9 - «B» sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



«KUTUBXONACHI» AMAKI HAQMI?

Farzandim Qo'qon shahridagi 29- maktabning 3- «J» sinfida o'qiydi. Kitob olish uchun maktab kutubxonasiga bordim.

Kutubxonaga kirganimda u yerdagi saqich, donalab sotilayotgan konfetlarni ko'rib hayron qoldim. Bundan tashqari, sotuvga qo'yilgan a y r i m darsliklarning narxi ham qimmat ekan.

Masalan, 4- sinfning «O'qish kitobi» 1000 so'm, 5- sinfning «Rus tili» darsligi 715 so'm o'rniga 800 so'm, 5-6- sinflar uchun mo'ljallangan «Botanika» kitobi 1100 so'm o'rniga 1200 so'mdan sotilayotgan ekan.

Men kutubxonachidan «darsliklaringiz nega qimmat?» deb so'raganimda, u «men 40 yillik o'qituvchiman. Hozir nafaqadaman. Darslikni choy puli chiqsin deb, ozgina qo'shib sotayapman. O'g'limning o'rniga men vaqtincha ishlayapman», degan javobni oldim.

«Kutubxonachi» amakimiz darslik kitoblarni ko'rsatilgan narxdan ortiq sotish mumkin emasligini bilarmikinlar? Darvoqe, maktab ma'muriyati bu holga nega befarq?

MUXTOR BEK.

Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, men ham insonlar orasida ahyon-ahyonda uchrab turadigan «kurmaklar» haqidagi mulohazalarimni bildirmoqchiman. Bugungi kunda eng dolzarb muammo - asr vabosiga aylanayotgan giyohvandlikdir. Qanday qilib ba'zilar uning domiga tushyaptilar? Nima uchun



NO!

JAMIYATNING KULI EMAS, GULI BO'LAYLIK



murg'ak bo'la turib chekishga qiziqadilar? Menimcha, irodasizlik baland keladi. «Cheksam, asablarim tinchlanadi, hasratimni unutaman, yengil tortaman» degan o'ydin boshlanadi hamma balo. Keyinchalik tamakiga ham qoniqmay, giyohvandlikning mazasini

totib ko'rishga kirishadi. Endi organizmning o'zi giyohvandlikni talab qilaveradi. Giyohvand atrofiga sherik yig'isi keladi. O'zining qabih ishi doirasini kengaytirish maqsadida atrofdagilarning ongini ham zaharlashga tushadi. Jamiyatdagi keraksiz odamga aylanadi. Ma'lumotlarga qaraganda yurtimizda yigirma uch mingta giyohvand qayd etilgan ekan. Naqadar dahshat. Agar bu baloga duchor bo'lmaganlarida ehtimol «tog'ni talqon» qilisharmidi, foydali inson bo'lisharmidi.

Men tengdoshlarimga shunday demoqchiman: «Do'stlarim, jamiyatning kuli emas, guli bo'laylik. Yaxshilarga yondoshib, yomonlardan adashaylik. O'zbekistonimizning faxri bo'laylik!»

Hilola ABDURAZZOQOVA,

Toshkentdagi

185-o'rta maktab bitiruvchisi.

Qulog'ingga gapim bor

SIZ NIMA DEYSIZ, QIZLAR?

Qishning qirovli kunlari boshlandi. Har tong maktabga otlar ekanmiz, onalarimiz: «O'zingni ehtiyot qil. Tashqariga chiqsang, qalin kiyinib ol!» deya tayinlashni kanda qilmaydilar. Hozirgi kunda aksariyat qizlarimiz maktabga shim kiyib borishyapti. Bizlar uchun bu juda qulay va issiqdir. Lekin ayrim ustozlarimiz shim kiyishimizga qarshi bo'lyaptilar. Menimcha, kalta yubkalardan ko'ra shim afzal. Siz nima deysiz, dugonajonlar?

Feruza OBIDOVA,

Toshkent viloyati,

Yangiyo'l tumanidagi

2- o'rta maktabning

9- sinf o'quvchisi.

QASHQADARYO QIZLARI

Do'stlar, mening yurtimni Qashqadaryo deydilar. Unda yashar xalqimni, Mehri daryo deydilar.

Yurtimda yashab o'tgan, Ko'p donishmand bobolar. Bu yurtning tuzin yegan, Botir o'g'lon, daholar.

Yurt kezgan Temur bobom, Qashqadaryo farzandi. Hamma bilgan Alpomish, Shu vatanning dilbandi.

Bu yurt baxtiyordir, Barcha o'g'il-qiz bola. Shu yurt kamol topdi Shoir bobom Abdulla.

Men ham shu yurt qiziman, Baxtiyorman shu sabab. Kelajakda o'zim ham, Shoir bo'lsam ne ajab.

Mahzuna HAMROYEVA,

Qarshi shahridagi

26- maktabning

6- «A» sinf o'quvchisi.

Menimcha dunyoda ikkita joyga borganda insonning borlig'i poklanib boraveradi: birinchisi maktabga, ikkinchisi qabristonga ziyoratga borganida. Yoshim ellikni qoralab qolgan bo'lsa-da, har tong qadrton maktabimga o'tlanarkanman, bolalik onlarimga qaytgandek bo'laveraman...

Qadrton maktabim, deganimning boisi bor albatta. Uzoq yillardan buyon Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 22- umumiy o'rta ta'lim maktabida mehnat qilib kelyapman.

1026 nafar o'quvchiga o'z kasbining fidoyisi bo'lmish, mehrdaryo o'qituvchilarimiz ta'lim-tarbiya berishadi. O'quvchilarimiz bilan ham maqtansak arziydi. Turli fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlari sport musobaqalarida faol ishtirok etib, ustozlari sabog'ini oqlashyapti.

Bilim dargohimizda amalga oshirilayotgan ibratli ishlarning bariga maktabimiz rahbari bosh-

qosh.

Maktabimizga

tez-tez

mehmonlar

kelib

turishadi.

Hamqishloqlarimiz taniqli jurnalist va shoir Murod Kalonxonov, professor Abduhakim Xojimefov, qishloq fuqarolar yig'ini raisi, oqsoqol Fozil Abulqosimov, mahallamiz raisi Husan Qosimovlarning tashrifini

She'riy mashqlarim to'plamlarga, 1-, 3- sinflar uchun mo'ljallangan ona-tili fani darsliklariga kiritilganidan faxrlanaman.

She'riyatga bo'lgan qiziqishim bois 1980 yillarda «Turkiston» gazetasi qoshida faoliyat ko'rsatgan «Shu'la» adabiy to'garagiga qatnab, iqtidorli shoira opamiz

Mukarrama Murodovaning saboqlaridan bahramand bo'lganman. Endilikda o'zim ham ustozman, maktabimiz qoshida tashkil qilingan «Shu'la» adabiy to'garagini boshqarib kelyapman. Ustozlardan olgan sabog'imni imkon qadar shogirdlarimga yetkazishga intilyapman. Quyida o'zimning hamda to'garagimizga a'zo bo'lgan umidli ijodkor o'g'il-qizlarning ijodlaridan namunalar o'qiysiz.

A. YUNUSOV,
iqtisod fani
o'qituvchisi.

ADABIYOT JONU DILIM

o'quvchilarimiz har gal intiq kutishadi. Ular hayotiy tajribalaridan, pandu nasihatlaridan nafaqat o'quvchilar, balki biz o'qituvchilar ham ko'p va xo'p saboq olamiz.


Garchi iqtisodchi bo'lsamda, adabiyot jonu dilim. Shoiru yozuvchilarga havas qilib, mana qariyb 20 yildirki, ijod qilib kelaman. Yozganlarim tumanimizning «Istiqlol» gazetasida, shuningdek, markaziy gazetalarda chop etilib turadi.

TOPISHMOQLAR


So'ysang qoni chiqmas,
So'ymasang joni chiqmas.



Tepsang tepilmaydi,
O'ynasang o'ynalmaydi.
Ular-chi, tog'da bo'lar,
Soylarning bag'ri to'lar.



Paxmoq yungli baqaloq,
Quloqlari yapaloq.



Yonar go'yoki fonar,
Unga-chi, pul to'lanar.



Eksang, hosil olasan,
Ekmasang, dog'da qolasan.

Zilola YUNUSOVA,
3- «B» sinf o'quvchisi.

U faslda omborlar,
Hosilga liq-liq to'lar.

Sunnatilla TO'XTAMURODOV,
2- sinf o'quvchisi.

MUSTAQILLIK BAYRAMI

Bayramlarning sarasi,
Mustaqillik bayrami.
Moviy osmonim uzra,
Hilpirar yurt bayrog'i.
Istiqlolim tufayli,
Yurtga qaytdi bulbullar.
Erkin o'sar Turonda,
Bolajonlar-gulgunlar.
Ko'ringga, jamolingga,
Ko'z tegmasin iloyo.
Dardingga bizlar malham,
Tan berdi senga dunyo.

Hali kunlar keladi,
Omon-omon bo'ladi.
O'zbekistonim yana,
Kuch-quvvatga to'ladi.

VATAN

Vatanimning quyoshi,
Oh, tanimga yoqadi.
Nuroni yeksa, yoshi,
Doim kulib boqadi.
Bo'ldim Uzoq Sharqida,
Amirqosi G'arbida.
Lekin Vatan yagona,
O'zbekimning qalbida.

Abdusamat YUNUSOV.

QADR

Men qadringga yetmadim maysa,
Seni ko'zga ilmadim chechak.
Hatto nazar tashlamadim-a,
Oyog'imni o'psa boychechak.

Bahor o'tdi, yoz qoldi ortda,
Kuz shamoli esmoqda mayin.
Xazonlarga to'lib bormoqda,
Yuragimning bog'i kun sayin.

Dilfuza KARIMOVA,
10- sinf o'quvchisi.

ONAJONIMGA

Tongda turib,
Yuzim yuvib,
Salom berdim oyimga.
Shodlangandan
Oyim dedi:
Nur to'shalsin poyingga.
Men ham xursand,
Onam shodon,
Rahmat dedim oyimga.
Shukur qildim, yaratganga,
Bu dunyoda borimga.

Zulfiya ABDUSAMAT qizi,
6- sinf o'quvchisi.

DO'STLIK

Do'stim deb ishonganim,
Boshqani topdi.
Meni tashlab puldorroq,
O'rtoqqa chopdi.

Shu kuni o'ksib-o'ksib,
Yig'ladim dildan.
Do'stni qidiring do'stlar,
Yuragi pok ko'ngildan.

Kamola MIRHAMIDOVA,
9- sinf o'quvchisi.

NOMUSIMIZ - QOMUSIMIZ

Maktabimizning kattakon faollar zali yana bayramona bezatildi. «Shahzod» guruhining «Jannat o'lkam» qo'shig'i sadolari ostida boshlang'ich sinflarning bilag'onu zukko o'quvchilari milliy liboslarda sahnaga chiqib keldilar. O'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, davlatimiz madhiyasini faxr va iftixor bilan kuylagan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan «Qomusimiz - nomusimiz» nomli tantanali kechani boshladilar.

O'zbekiston farzandimiz,
Mustaqil yurt dilbandimiz,
Xalqimizning erkasimiz,
Vatanimiz ertasimiz,-deya baralla she'raytishdi 1- «V» va 4- «A» sinf o'quvchilari.
Bobolarning davomchisi,

Ertangi yurt tayanchimiz.
Yetishmagan orzularga,
Endi bizlar yetmoqchimiz,-deya bo'sh kelishmadi 2- «V» sinf o'quvchilari ham.

Konstitutsiyadagi moddalarni yoddan aytishdi, Vatan, Ona haqida kuy va qo'shiqlar kuylashdi. Ularning sportga oid ko'rgazmali chiqishlari tengdoshlarini befarq qoldirmadi.

4- «A», 4- «D», 4- «G», 4- «I» hamda 3- «A» va 3- «V» sinf o'quvchilarining kechadagi faol ishtiroklari barchaga mamnun bo'ldi. Shunday ajoyib tadbirni tashkillashtirgan izlanuvchan murabbiy Muhabbat Umarovaga o'z minnatdorchiligini bildirdik.
Nasiba TURDIQULOVA,
Sirg'ali tumanidagi
322 - maktab o'qituvchisi.

Bu voqea bo'lganiga ancha vaqt bo'lgan. Lekin hanuzgacha yodimdan chiqmaydi. Borganimda oldimga yugurib kelib, salom beradigan

do'stimning nabirasi birdan o'zgarib qoldi. U o'zini mendan olib

qochadigan, cho'ntagimda olib yuradigan konfet yoki qurtlardan bersam, olmaydigan odat chiqardi. O'rtog'imdan buning sababini so'radim. «Axir sen jonidan ham yaxshi ko'radigan buvijonisini qandaydir yalmog'iz kampirga o'xshatibsan-da», dedi kulib o'rtog'im. «Nabiram meni va buvisini yeru ko'kka ishonmaydi. Bizning sha'nimizga biror yomon gap aytgan kishidan juda xafa bo'ladi».

Bu gapdan so'ng aybimni darrov tushundim.

Unga qalin o'rmonda adashib qolgan bola va yalmog'iz kampir haqidagi ertakni aytib bergandim. Bola yalmog'iz kampirning kulbasi

oldidan chiqib qoladi. Uni ikki yamlab, bir yutaman, deya shaylanib turgan kampirni ko'rib, dovdirab qolmabdi. Dadasining: «tanishmi, notanishmi, yoshi katta odamni ko'rsang, o'ng qo'lingni chap ko'ksingga qo'yib, salom


berishni unutma», degan so'zlari yodiga tushibdi. «Yaxshi o'tiribsizmi, buvijon?» deya holahvol so'rabdi. Yalmog'iz bolaning shirin so'zi va salomidan erib ketibdi.

Uning qornini to'ydirib, shamoldan tezuchar supurgi otiga mindirib, uyiga olib kelib qo'yibdi.

Ertakni aytib bo'lib, «Abdullajon, sening buving yalmog'iz kampirga o'xshamaydimi?», deya hazillashgandim. Bilsam, qaltis hazil qilib, noo'rin so'z aytgan ekanman. Shundan buyon har bir so'zni o'ylab aytadigan bo'lib qoldim. Axir aytiladigan har bir so'z - jon ozug'i. Dono xalqimiz: «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir», deb bejiz aytmagan-da.

Karim RAHIM.

BIR OG'IZ SO'Z



Jussasi kichkinagina, shirintoy bolakay bir nechta «Faxriy yorliq» va medallar solingan jildni ko'tarib, oyisi bilan tahririyatga kirib kelganida, «Bugunning bolasi - kelajak Alpomishi», degan fikr o'tdi ko'nglimdan. Haqiqatan ham adashmagan ekanman. Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 121-o'rta maktabning 1- «B» sinf o'quvchisi Doston Yo'ldoshev uch yoshligidan buyon sportning TAEKVANDO turi bilan shug'ullanib kelarkan. Birinchi kumush medalini til bo'yicha bo'lib o'tgan tanlovda to'rt yarim yasharligida qo'lga kiritibdi.


-Bilasizmi, Doston chaqaloqlik davridayoq boshqa tengdoshlaridan ajralib turardi,- deydi onasi Umidaxon opa faxr bilan. -Hatto vahimaga tushardim. Tug'iliboq boshini tutgan, juda erta toy turgan, hatto uch-to'rt oyiligidan tekis shpagat o'tira olardi. Yetti oyiligidan dadil qadam tashlab, yurib ketgan,-degan gapi hayratimni yanada oshirdi...

Joriy yilning noyabrida Kiprda bo'lib o'tgan bellashuvda 16 ta davlatdan ishtirokchilar kelib, o'zaro bellashdilar. To'qqiz nafar boladan iborat O'zbekiston terma guruhi tarkibida bu yosh sportchi ham bor edi. Qizg'in bellashuvda birinchi o'rin sohibi bo'lgan Doston Yo'ldoshevga Kipr Prezidentining shaxsan o'zi oltin medalni

BIR PALLASI MAG'LUBIYAT, BIR PALLASI SHOKSUPA BU SPORT...

topshirdi. Eng yosh qo'l jangi ustasiga kelajakda omad va katta yutuqlar tiladi.

Bugungi kunda Doston ko'k rang belbog' egasi. Uning murabbiyi Elmurod Nuraxonovning aytishicha, qora belbog' sohibi bo'lish uchun 24 ta tilni bilish kerak ekan, ko'k belbog' 12 ta til ustasiga



topshirilarkan. Doston 24 ta tilni bimalol uddalay olishini, qora belbog'ni ham osongina qo'lga kiritishi mumkinligini faxr bilan gapirib berdi. Qiziq, Doston yana nimalar bilan mashg'ul bo'larkin? Qo'lidagi plakatda nimaning surati?

- Bu ot rasmi,- deydi bolakay. -Otlarni juda yaxshi ko'raman. Shunaqa otlar rasmi tushirilgan plakatlarim soni 30 taga yetdi. Yana,

matematika fani jonu dilim. Ustozim Munira opa aytganlaridek, mustaqil ravishda masalalar tuzib, misollar yechib soatlab o'tiraman. Doimo baholarim a'lo, xulqim namunali bo'lishiga harakat qilaman. Bo'sh vaqtlarimda singlim Dianani o'ynataman, oyinga qarashaman, dadam bilan shaxmat o'ynayman. Lekin sport haqida to'xtamay gapirishim mumkin. Chunki shashka, suzish, yugurish, tortilish bo'yicha bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritganman. 193-bog'chaga borgan davrimda tortilishdan tuman miqyosida birinchi o'rinni olganman. Yaqinda Guliston shahriga bellashuvga ketyapmiz. Keyin Malayziyaga boramiz. Oldinda ko'p bellashuvlar kutyapti bizni.



Бугуннинг боласи



Umidlari osmon Dostonga qarab turib, o'yg'a toldim. Sportning bir tomoni mashaqqatli mehnat bo'lsa, yana bir tomoni sayohat, bir pallasi mag'lubiyat bo'lsa, bir pallasi shohsupa. Metin irodali, qat'iyyatli insonlarga sportni tanlaydilar. O'z ustida ishlash, chiniqish, toblanish evaziga g'oliblik keladi. Biroq, mag'lubiyatni ham ko'tara bilish kerak. Shohsupaning yuqorisidagi o'rning yo'qolmasin - yosh chempion Doston!

Muharrama PIRMATOVA.

Gazetaga maqola tayyorlash uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi, asarlari adabiyot darsligidan o'rin olgan adibimiz Odil Yoqubov bilan suhbatlashdim. Odil aka ko'proq nabiralari, ayniqsa, Mahbuba haqida gapirib, «juda ajoyib qiz, a'lochi, odobli, mehnatsevar» deb maqtadilar.

Shu ajoyib qizni tengdoshlariga tanishtirish maqsadida u bilan ham suhbatlashdim. Mahbuba baland bo'lyi, ko'zlari moviy, bug'doy rang, biroq jiddiy, ko'p o'qigani gaplaridan sezilib turadigan qiz ekan.

- Mahbuba, qaysi maktabda o'qiyasiz?

- Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 99- maktabning 6- «B» sinfida o'qiyman. Sinfimizdagi 30 o'quvchining hammasi bir-biriga mehribon, inoq. Bunda sinf rahbarimiz Mahfuza Rahmatovaning xizmatlarini ta'kidlamochim. O'zlari matematikadan dars bersalar ham tarbiyaviy soatlarni mazmunli o'tkazadilar.

- Yana qaysi ustozlaringizni faxrlanib ayta olasiz?

- Rus tili muallimimiz Asya Murodovna, mehnat o'qituvchimiz Shoira Rasulova, ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Zuhra opa Hotamovalarning darslari ham bizga yoqadi.

- Mehnat darsida qanday taomlarni tayyorlashni o'rgandingiz?

- Shoira opa bizga milliy taomlar bilan birga Yevropa taomlarini ham o'rgatadilar. Hayit dasturxonini uchun qush tili, bo'g'irsoq, chak-chak kabilarni o'zimiz tayyorladik. Qatlama pishirishni ham bilamiz.

- Buvangiz sizni odobli qiz dedilar. Odobli qiz qanday bo'lishi kerak deb

o'ylaysiz?

- Buvajonim va oyim menga salomni unutma, sekin, muloyim gapir, kattalarga gap qaytarma, xo'p bo'ladi, degin deb o'rgatishadi. Shu nasihatlariga amal qilgan qiz odobli bo'lsa kerakda!



"MUZQAYMOQ"NI YAXSHI KO'RAMAN

O'qishlaringiz qanday? Darsdan bo'sh vaqtlaringizda to'garaklarga qatnaysizmi?

- Baholarim hammasi a'lo. Bo'sh vaqtimda rasm chizaman, kitob o'qiyman. Hovliga ekilgan gullarni parvarishlayman. Tuvakda ham gul o'stiraman. «Sohibjamol va maxluq» multfilmini yaxshi ko'raman. U haqda ham ko'p rasmlar chizganman. Sinfdoshlarim Xurshida, Nigora, Zilolalar bilan turli tadbirlarga atab devoriy gazetalar ishlaymiz.

- Mahbuba, nimani yaxshi ko'rasiz?

- «Muzqaymoq»ni yaxshi ko'raman,

- Shu sovuq kunda hammi?

- Har doim, bu «Muzqaymoq» buvajonim yozgan hikoya.

- Shundaymi? Adabiyot darsida hozir shu hikoyani o'rganyapsizlar, shekilli.

- Ha, hozir shu hikoyani o'qiyapmiz. «Muzqaymoq» hikoyasida buvam boshlaridan o'tgan voqealarni hech o'zgartirmay hikoya qilganlar. Buvamning otalari Egamberdi ota katta ishlarda ishlagan ekanlar. Uylarida tintuv o'tkazib, arzimagan bahona bilan NKVD-xodimlari qamoqqa olib ketgan ekan. Otalari buvamga ikki marta muzqaymoq olib bermoqchi

bo'lgan ekanlaru do'kon bekilib qolgani uchun oberolmay armonda ekanlar. Qamoqqa olib ketishayotganda otalari «o'g'lim, senga muzqaymoq oberolmadim, o'zing olib ye» deb ularga pul beradilar. Buvam yig'lab yuboradilar.

- Buvangiz - asar qahramoni grafinni sindirib qo'ygani uchun otalari teshik grafinni o'g'lga qarab jahl bilan otib yuboradi, nega shunchalik jahldor ekanlar?

- Sababi buvamning otalari ishsiz, uyda siqilib yotgan paytlari ekan.

- Siz ham ko'p kitob o'qir ekansizmi?

- Buvamdan yuqqan. Uyimizda kitoblar ko'p. Istaganimni o'qishim mumkin. Buvamning «Ulug'bek xazinasi»,



Qo'shuv

«Diyonat», «Adolat manzili» romanlarini ham o'qiganman, televizorda shu kitoblar asosida yaratilgan videofilmlarni ko'rganman. Buvam hozir 75 yoshdalar, tinmaydilar. Katta yozuvchi Chingiz Aytmatov Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi prezidenti bo'lsa, buvam shu assambleyaning vitse-prezidentilar.

- Qo'shiq aytgim kelyapti. (Mahbuba Sevara Nazarxon ijro etgan «Vatanim» qo'shig'ini shirali ovozda kuylab berdi).

- Qo'shiq matnini kim yozgan, bilasizmi?

- Muhammad Yusuf yozganlar.

- Buvangiz hozir nimalar yozyaptilar?

- Xotiralar yozyaptilar.

- Tengdoshlaringizga tilaklaringiz?

- 2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili deb e'lon qilindi. Hammamiz buva, buvijonlarimizni qadrlaylik, duolarini olaylik.

Mana, Mahbuba bilan ham tanishib oldingiz. Bahonada yozuvchi Odil Yoqubov ijodi haqida bilib oldingiz. O'ylaymizki, Mahbuba kelajakda bobosi asarlari haqida ilmiy ishlar yozadi. Bobosiga munosib nabira bo'ladi.

GULYUZ.

TENG-DOSHLARING

10 yildan oshdiki, maktabda «Nihol» to'garagini olib boraman. Bu to'garak a'zolaridan Durdon Oxunjonova, Aziza Mahmudova, Sevara Isoqionova, Rixsitilla Shermonov, Nozima Usmonovalarning she'r va maqolalari «Tong yulduzi» gazetasida ko'p marta chop etilgan edi. Hozirgi kunda ular nufuzli oliy dargohlarda o'qishmoqda. Gulgun Sultonova esa xalqaro jurnalistika fakultetiga eng yuqori ball to'plab kirishga muvaffaq bo'ldi. Bu shogirdlarim bilan faxrlanaman, ularning ijod namunalari to'plab, adabiyot xonasiga yig'ib qo'yganman.

Bu yil 5-sinflarni o'qityapman. Ijji bolajonlarim ularning ijodidan namunalarni ko'rib, «Biz ham yozaylik» deb qolishdi. Men ularga hali yosh ekanlarini, kelgusi yildan to'garakni yana qayta ochishimni aytdim. Ular «Kichkina demang bizni» deb, qo'limga yozganlarini topshirishdi. O'qidim, sevindim, mitti yurakda aytilmoqchi bo'lgan tuyg'ularni borligini sezdim. Ayrimlarini tahrir etib, sevimli

NIHOLLARIM BO'Y CHO'ZSA

gazetalari «Tong yulduzi»ga yuborishni lozim topdim. Sevimli deganinning boisi bor. 5- «V» sinfidan 18 o'quvchi «Tong yulduzi»ga o'zi obuna bo'lgan. Siz-chi, dersiz? Albatta, o'zim ham gazetani ular bilan birga o'qib boraman. Shogirdlarimning o'z yo'llarini topib ketishlarida «Tong yulduzi»ning hissasi katta. Istardimki, bu yosh shogirdlarim ham ilk mashqlarini gazeta sahifalarida ko'rib quvonsa, uning maslahat va o'gitlari bilan nihollarim bo'y cho'zsa...

Mahmuda VALIYEVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-maktab muallimasi.

Sinfdoshim Murodilla - chin do'stim. Nega deysizmi? 3- sinfda o'qiyotganimizda ustozim meni darsga kelmadi, deb «minus» qo'yibdilar. Murodilla ustozimga «Do'stim sababsiz dars qoldirmaydi, sababli qilib belgilang», debdi. Ustozim sababini so'ragan

shoshib ketib qoldi. Ustozimga kasal ekanimni aytib, darsdan so'ng yana keldi. Har kuni



kelib darslarni o'rgatib turdi. Do'stim sababli baholarim pasayib ketmadi. Hammaning chin do'sti bo'lishini istayman.

Sardor MIRSOATOV,
5- «V» sinf o'quvchisi.

ekanlar. «Ruxsat bering, uyga borib xabar olib kelaman» debdi. O'sha kuni isitmam chiqib, kasal bo'lib qolgandim. Oyim dori ichirib, ishga ketgandilar. Murodilla kelganidan suyunib ketdim. Ammo u darsga borishim kerak, hali kelaman, deb



Sinfdoshim Baxtiyor kasal bo'lib, shifoxonaga tushib qoldi. Ustozimiz galma-

Baxtiyorning oyisi bilan uni ko'rgani bordim. Uni davolayotgan doktor amaki «Baxtiyorga bugun javob beraman», dedilar. «Tuzaldimi?» desak, «Tuzaldi, uni sizlar tuzatdingiz, do'stlarining mehribonligidan, tez-tez kelib xabar

olib turganingizdan tuzaldi» dedilar. Xursand bo'lib, barchamiz birga shifoxonadan qaytdik.

Adham MUHAMEDOV,
5- «V» sinf o'quvchisi.

gal dan borib, Baxtiyorni ko'rib kelinglar, dedilar. Dilmurod, Ziyoda, Aziza, Sardorlar uni ko'rib kelishdi. Ertasiga men ham




Gulnoza UMAROVA,
5- «V» sinf o'quvchisi.



AYOZ BOBO

Yulduzlar charaqlaydi,
Oy nuri yaraqlaydi.
Ayoz bobom kelsa,
Suv muzlab taraqlaydi.



DARYO

Daryo to'liqini toshar,
Qir-adirdan ham o'tar.
Bir nima demoqchiday,
Shivirlab qo'shiq aytar.

Daryo, qo'shig'ingni ayt,
Birgalashib kuylaylik.
Senga bayt, go'zal bayt,
Jo'r bo'lishib yayraylik.

ARCHA

Onam so'zlab bergandi,
Archa yasatganini.
Ko'rib quvongan barcha,
Qani endi u archa?



FOYDALI MASLAHATLAR

Tengdosh do'stlarim! Agar maslahatlarimning teskarisini

qilsangiz, eng zo'r bola bo'lasiz.

1-maslahat: O'qituvchidan gap eshitishni xohlasang, darsda gaplashib o'tir. (O'qituvchidan gap eshitishni xohlamasang, gaplashmay o'tir).

2-maslahat. «Toshbaqa» laqabini orttirmoqchi bo'lsang, imillab yur.

3-maslahat: Darsda yozmaymadesang, ruchkangni sindir.

4-maslahat:

Qizlarga sovuq kunda ham suv sep, seni quvlashadi.

5-maslahat: Dars tayyorlamagan bo'lsang, zo'r bahona top.

Sizga 5 ta maslahat berdim, kesimlarga - ma bo'lishsizlik fe'li qo'shimchalarini qo'shib, ularga amal qiling, odobingizga «5» qo'shiladi.




Muxlisa
AKBAROVA,
5- «V» sinf
o'quvchisi.



KOPTOGIM

Bor edi menda,
Jajji bir koptok.
Yorilib qoldi,
Sakramas to'p-to'p.



SOAT

Soat chiq-chiq qiladi,
Ba'zan to'xtab qoladi.
Agar uxlab qolmasa,
Jiringlab uyg'otadi.

Nargiza JALILOVA,
5- «V» sinf o'quvchisi.

BUVIJON

Mehribonim buvijon,
O'zingiz-ku bir jahon.
O'gitlaringiz menga
Yo'ldosh bo'ladi har on.

Iqbola

USMONBEKOVA,
5- «A» sinf o'quvchisi.



DARSDA

Ustoz: -Bugun havo qanday? Shu savolga javob yozinglar.

Farruh: -Bugun havo tulush, - deb daftaridan o'qib berdi.

Ustoz: -Tulush nima degani?

Nigora: -Ustoz, Farruh mendan ko'chirdi, osmon tiniq, havo ochiq va toza, deb yozgandim.

Nigina RAHMONBERDIYEVA,
5- «A» sinf o'quvchisi.



VATANIM

Mening aziz vatanim,
Berayin jonu tanim.
Ulg'aydim, o'sdim senda,
Vatanim jon vatanim.

Serquyoshsan juda ham,
Jonu dilim jon vatan.
Bu dunyoda bor bo'lsin,
Senday mehmon do'st vatan.

Feruza
SHERMUHAMEDOVA,
5- «B» sinf o'quvchisi.



XALQIM

O'zbek xalqim,
Onajonim.
Seni deya,
Fido jonim.

G'anim seni,
Yengolmasin.
Xalqim unga,
Bo'ysunmasin.

Gar bo'ysunsa,
Qolmas jonim.
Zirqiraydi
Jonu tanim.



Sardor ERKINOV,
5- «A» sinf o'quvchisi.

Xalqim doim,
Ozod bo'lsin.
Farzandlari,
Yayrab kulsin.



Qishloqqa borganda uyg'onar sog'inch,
Uyg'onar bolalik xotiralari.
Qishloqqa borganda uyg'onar maysa,
Uyg'onar gullarning yashil nozlari.

Qishloqqa borganda uyg'onar mehriy,
Uyg'onar dala-tuz, uyg'onar armon.
Qachondir qalbimda qolib ketgan mung,
Uyg'onar iymoning, uyg'onar vijdon.

She'rni o'qib, ko'nglingizni bir ajib his-tuyg'ular
qamrab olgan bo'lsa, ne ajab. Biz sevib, inqil kutib
tomosha qiladigan «Qishloqdagi tengdoshim» xuddi
mana shu misralar bilan

boshlanadi. Ko'plab
tengdoshlaringiz iltimoslarini
inobatga olgan holda ko'rsatuv
muallifi va boshlovchisi Nargiza
Hasanova bilan suhbat qurdik.

**- Nargiza opa! Tomoshabin
muxlislardan kelgan aksariyat
maktublarda shaxsiy
hayotingiz bilan ko'proq
qiziqishadi.**

- Otam-onam xizmatchi.
Mirzo Ulug'bek nomidagi
Toshkent Davlat Milliy
Universitetini tamomlab, 3 yil
aspiranturada tahsil olganman.
Endilikda O'zbekiston
televideniyesining «Yoshlar
telekanali»da muharrir bo'lib
faoliyat ko'rsatayapman. Oilada

to'ng'ich farzandman. Yoshim 28 da. Ota-onamni eng
yaqin maslakdoshlarim deb bilaman.

**- Siz O'zbekistonimizning deyarli hamma
qishloqlaridagi o'smir yoshlar, ularning faoliyatlari
bilan yaqindan tanishsiz.**

- Respublikamizda yashayotgan qishloqdagi
tengdoshlarimizning faoliyatlari bilan tanishib, bir
narsani aniq sezdim. Ularning ko'ngillarida vatan, unga
bo'lgan mehr-muhabbat hissi nihoyatda kuchli.
Demoqchimanki, har bir tengdoshimizning jo'shqin,
zavqli hayotlari bizni befarq qoldirmaydi. Oralarida
iste'dodli, iqtidorli o'quvchilar nihoyatda ko'p. Ularning
ko'pchiligi bilan siz «Qishloqdagi tengdoshim»
ko'rsatuv orqali muntazam tanishib borgansiz.

**- Nargiza opa, g'aroyib nomlanadigan
qishloqlarimiz talaygina. Ularning tarixi bilan
qiziqqanmisiz?**

- O'smirlarimiz ko'rsatuv orqali O'zbekistonning
jug'rofiy o'rni, qishloqlar tarixi bilan muntazam
ravishda tanishib borishyapti. Ular qiziqarli qishloqlar

nomlarini yaqindan bilishni xohlashadi. O'zbekistonda
nihoyatda qishloqlar ko'p. Tengdoshlarimiz ayrim
qishloqlar nomini eshitib, ham hayratga tushishadi, ham
zavqlanib kulishadi. Masalan, Samarqandning
«Ko'ksoqol», «Qulqishloq», «Qora tuxum»,
Surxondaryoning «Poshxo'rt»,
Qashqadaryoning
«Maydayobu»
qishlog'i,

HUV-OLIS-YO'LLARNING-ADOCHI QISHLOQ



Namanganning
«Nana» ,

Andijonning «Cho'ja»,
Toshkent viloyatining «Qo'chqor
so'ygan» kabi qishloqlariga
borganimizda, o'smir yoshlarimiz
qishloq tarixi, u yerdagi tengdoshlar
hayoti bilan tanishishdi, ham
zavqlanib kulishdi.

**- Ko'rsatuv nomiga juda ko'plab
maktublar kelsa kerak-a?**

- Shu kungacha
tengdoshlarimizdan 6 mingga yaqin

*Nargiza Hasanova. 1974 yil 8 martda
Surxondaryo viloyatining, Sherobod
tumanidagi Toshxo'rt qishlog'ida
tug'ilgan. 1998 yildan beri «Yoshlar
telekanali»da muharrir lavozimida
ishlamogda.*

maktub oldik. Maktublarda asosan
tengdoshlarimiz o'zlarini o'ylantirayotgan tashvish va
muammolarini, orzu-armonlarini, qiziqishlarini, ko'rsatuv
haqidagi qiziqarli fikr-mulohazalarini yozishadi, o'z ona
qishloqlariga taklif etishadi.

**- Nargiza opa, ayting-chi, siz qishloqlarga qay tarzda
safari uyushtirasiz?**

- Asosan qishloqdagi tengdoshlarimizning maktublari
asosida ularni izlab topaman. Orzulari, o'ylari bilan
yaqindan qiziqaman. Muammolari bo'lsa, tegishli
tashkilotlarga murojaat qilib, ularning muammolarini hal
etishga ko'maklashaman. Menga kelayotgan
maktublarning aksariyatini minnatdorchilik maktublari
tashkil etadi. Buning uchun tengdoshlarimizga rahmat
deyman, ko'rsatuvga befarq emasliklari uchun.

**- Suratga olish jarayonida qiziqarli voqealar ko'p
bo'lsa kerak-a?**

- Albatta, tengdoshlarimiz bilan ko'proq qishloqning
fusunkor tabiati bag'rida suhbatlashamiz. Gohida tasvirga
olish jarayonida shunday holatlar bo'lganki, tog'
qishloqlarining birida chiroq o'chib qolgan. Biz olov

atrofida o'tirib suhbatlashganmiz. Bir payt sharros
yomg'ir quyib yuborgan. Suratga olish jarayoni tugasa
ham qishloq yoshlari tunggi soat 4 gacha qizg'in
suhbat qilishgan. Qadim Qashqadaryoning Shahrisabz
tumanidagi Miraki qishlog'ida ham qiziq bir voqea
bo'lgan.

Oqdaryo bo'yida
shoira qizcha bilan
suhbatlashib turgan paytimiz
qizaloq suvni o'ynayman deb, oyog'i to'yib,
suvga tushib ketgan. Men esa uni qutqaraman deb, 3
kilometrch masofaga oqib ketganman. Bunaqangi
qiziqarli voqealar deyarli har bir ko'rsatuv tayyorlash
jarayonida sodir bo'ladi.

- Kelajakdagi rejalaringiz qanday?

- Yangi 2002 yilda nafaqat O'zbekistondagi o'smir
tengdoshlarimiz, balki qo'shni mamlakatlardagi
tengdoshlarimiz hayotlari bilan ham tanishish istagimiz
bor.

**- Ko'rsatuv muxlislari uchun
tasvirga bog'lab, chiroyli she'rlar
aytasiz. Navbatdagi**

**ko'rsatuvlaringizda qaysi viloyat
qishloqlari rejalashtirilgan?**

- Ko'rsatuvning keyingi sonlarini
Namangan, Andijon va Samarqand
viloyatlari qishloqlaridan tayyorlashni
rejalashtirganmiz.

**- O'zbekiston qishloqlari sizning nazaringizda
qanday?**

- Jonajon diyorimizda fusunkor qishloqlar judayam
ko'p. Ona tabiatning go'zalliklarini ko'rib, qishloqning
yolg'izoyoq yo'llaridan yurib, ko'p hollarda go'zal
qishloqlar sehriga oshufta bo'lib qolamiz. Shoir Abdulla
Oripov aytganidek:

**«Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston vatanim manim».**

Demoqchimanki, O'zbekistonning go'zal
qishloqlarini ta'riflashga so'zning sehri kamlik qiladi.
Shuning uchun hamdirki, ul betakror qishloqlar bizni
hamisha o'z bag'riga chorlab qolaveradi.

- Yangi yilda tengdoshlaringizga tilaklaringiz.

- Yangi yil har bir insonga baxt va omad keltirsin.
2002 yil tarix zarvaraqalarida «Qariyalarni qadrlash
yili» deb e'lon qilindi. Hamisha keksalarimizni asrab-
avaylaylik. Zero, «Qarisi bor uyning - parisi bor»
deyishadi. Hamisha bir-birimizga mehrlili, oqibatli
bo'laylik. Yaxshiliklar yo'lida yaxshi niyatlar bilan
yashaylik.

Botir RAMAZONOV suhbatlashdi.

**Aziz bolajonlar, bir yilimiz o'n ikki oydan
iborat ekanligini, har bir oyning o'z nomi borligini
yaxshi bilasiz-a. Ana shu oy nomlarining mazmunini,
qanday ma'noni anglatishini hammangiz ham
bilavermasangiz kerak-a?
Bugun sizlarga oylarning ta'rif haqida ma'lumot
bermoqchimiz.**

1. **Yanvar** - ikki yuzli xudo
Yanus sharafiga Yandarius deb
atalgan. Rimliklar e'tiqodicha,
u har narsaning ibtidosi va
intiqosiga homiy hisoblangan.

2. **Fevral** - lotincha
«februm» so'zidan olingan
bo'lib, marhumlar tangrisi
Februariy nomiga qo'yilgan.
«Februarius» so'zi tozalanish,
saqlanish degan ma'nolarni
anglatadi.

3. **Mart** - asli «Martius»
dehqonlar va chorvadorlar
homiysi Marsning ismi.

4. **Aprel** - «Opfire»

OYLAR NOMINING

so'zidan. Mazmuni «o'z
in'omlarini namoyon etuvchi».

Ba'zi manbalarda go'zallik va
muhabbat ma'budasi Afrodits
ismidan, ayrimlarida hosildorlik
xudosi nomidan kelib chiqqan
deyiladi.

5. **May** - ma'buda Mayya
(Mayus) nomidan olingan.
Go'zallik va Shodu - hurramlik
pallasi hisoblanadi.

6. **Iyun** - Yupiter
(Mushtariy)ning rafiqa -
ma'buda Yunons sharafiga
qo'yilgan.

Afsona-rivoyatlarga
qaraganda Yunons ayollarga

homiylilik
qilgan, er-xotinlarning
qo'sha-qarishini, uvali-juvali
bo'lishini istagan.

Ilk Rim davrida unga faqat
onalikning homiysi sifatida
sig'inishgan. Keyinchalik
davlatning asosiy
ma'budalaridan biriga
aylantirilgan.

7. **Iyul** - Rim davlat arbobi.
Mashhur sarkarda Yuliy Sezar

sharafiga shunday atalgan. Yuliy
Sezar eramizdan avvalgi 44
yilning 15 martida Senatning
majlislar

zalida o'ldirilgan.

8. **Avgust** - Yuliy
Sezarning nabira jiyani,
asrandi o'g'li va vorisi - Fim
hoqoni Oktavian Avgust
nomiga qo'yilgan.

U dushmanlari ustidan g'olib
chiqqan. Rimda eng qudratli
odam bo'lib, qolgan hamda
hokimiyatni o'zi boshqargan.

9. **Sentyabr** - ko'hna Rimda
qabul qilingan o'n oylik
taqvimning tartib bo'yicha
yettinchi oyi. Lotinchada

«Septimber» deyiladi. Yetti
sonini bildiradi.

10. **Oktyabr** -
qadimgi rimliklar
taqvimidagi
sakkizinchi oy.
Lotincha
«Oktober»,
o'zbekchada esa
sakkiz deganidir.

11. **Noyabr** - lotin
tilidagi
«November»
so'zidan. Fim eski
taqvimidagi
oylarning
to'qqizinchi.

12. **Dekabr** - Shu
taqvimning so'nggi oyi.
Lotinchasi «deqimber». Deqim
- o'n demakdir.

**Ali KO'CHIYEV,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo
shahri.**



Hovlida o'ynab yurgan To'liq tuproq orasidan singan qoshiq topib olib,



BOLANING TULI SHURIN

oshxonada ovqat tayyorlayotgan onasiga chopib kelib:

- Oyi, oyi, manovini qarang, men dala qoshig'ini topib oldim, - dedi mag'rurlanib.

Geometriya fanining muallimi shogirdidan:

- Burchak necha turga bo'linadi? - deb so'rabdi.

U o'ylamasdan:

- Qora, qizil, ko'k, sariq bo'lib to'rt turga bo'linadi, - deb javob berdi.

Jasur, onasi, adasi uchchovi



kechki saylga chiqishgan. Jasur osmonga suqlanib qarab turib, bir payt oyni ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatib:

- Oyi, huv anovi u kimning to'pi? - deb so'radi.

- Jasur, sen echkini qo'ydan ajrata olasanmi? - deganda u:

- Ha, ajrata olaman, - dedi.

- Qanday qilib ajratasan, aytchi?

- Echkining shoxi bo'ladi.

- Ba'zi bir qo'ylarning ham

shoxi bo'ladi-

ku? - deganda

u:

- E, topdim,

topdim, - dedi u quvonib, - echkining soqoli bo'ladi.

Kecha Jasur qishloqdagi buvisinikidan kelgan. U yo'l-yo'lakay eshitgan so'zlarini esiga tushirib:

- Ada, buvimning qulog'iga tosh kirib ketganmi? - dedi hayron bo'lib.

Adasi:

- Uni kim aytdi? - dedi.

- O'zlaringiz «onam tosh garang bo'lib qolibdi» deb yo'lda aytdilaringiz-ku.

Qidirboy TO'LABOYEV.

Hali-hali esimda. Men 12 yoshlarda edim. Biz tog'da yashardik. Bir kuni ota-onam meni qo'shni qishloqda kasal bo'lib yotgan amakimdan xabar olib kelishga yubordi.

Men o'rmondan o'tib borardim. Kuz... Xazonlar to'kila boshlagan. Kechqurun... Tuman butun o'rmonni qoplagan. Shamol esib daraxt barglarini shitirlatardi. Men dadil, olg'a yurib borardim, chunki yo'lni yaxshi bilardim. Ikki soat yurdim. Vaqt allamahal bo'lib, tunga yaqinlashib qolgan edi. Qop-qorong'u... Men yolg'izoyoq yo'lni zo'rg'a ko'rar edim. To'satdan orqamdan qandaydir oyoq tovushini eshitdim. Bu hech odam oyoq tovushiga o'xshamasdi. Bu nima? Meni vahima bosdi. Yuragim dukullab

MASHHUR FRANSUZ YOZUVCHISI JILBER DELAYE HAYOTIDAN

urib ketdi. Birdan miyanga, bu bo'ri bo'lsa kerak, degan fikr keldi. Ortga qarashga juda qo'rqardim. Chopa boshladim. Hayvon ham orqamdan quvladi.

Kuchim boricha yugurdim. Hayvon hamon mening orqamdan kelardi...

Birdan qoqilib, yiqilib ketdim. Oyoq tovushi ham mening yonginamga kelib to'xtadi. Qo'rquvdan

titrardim. Shu payt

oy chiqdi. Uning

shu'lasi

yolg'izoyoq yo'lni

yoritdi. Shunda men

maxluqni ko'rish

uchun orqamga

qafadim. Qaysi ko'z bilan

ko'rayki, amakimning eshagi

mendan ikki qadam narida

o'tlab yurardi... O'zimning

qo'rqanimdan o'zim juda

uyaldim.

Fransuz tilidan Feruza ISROILOVA tarjima qildi.



KASAL

Dars paytida o'qituvchi o'quvchilardan:

- Qani, menga kim aytadi, «kasal» nima? - deb so'radi.

Bu savolga sinfdagi o'quvchilardan birortasi ham javob bermay, jim o'tirishardi.

Birozdan so'ng kichkina Remi qo'l ko'tardi.

- Juda yaxshi, qani Remi, aytchi, «kasal» nima ekan?

- «Kasal» bu kliyent deganidir, - deb javob berdi vrachning o'g'li Remi.

GRAMMATIKA DARSIDA

Grammatika darsida o'qituvchi Giga buyurdi:

- «Ot aravaga qo'shilgan» degan gapni buyruq formada ayt!

Gi biroz o'ylab olgach:

- Cho'!, - deb yubordi.

IMTIHONDA

- Menga ayting-chi, issiq bilan sovuqning farqi nimada? - so'radi imtihon oluvchi o'quvchidan.

- Issiq kengaytiradi, sovuq toraytiradi, - tez javob berdi yigitcha.

- Qani, misol keltiring-chi?

- Qishda sovuqda kunlar juda qisqa bo'ladi, yozda issiqda kunlar juda ham uzun bo'ladi, - deb javob berdi o'quvchi.

FRANSUZ XANDALARI



GEOGRAFIYA DARSIDA

O'qituvchi Poldan so'radi:

- Bilasanmi, vaqt

Yevropada Amerikaga qaraganda necha soat oldin yuradi?

- Ha, albatta

bilaman. Vaqt

Yevropada oldin, chunki Amerika keyin ochilganda.

YAXSHI PAYT

Bir kuni o'qituvchi o'quvchilarga yilning to'rt faslini tushuntirardi:

- Bahorda gullarga burkanib juda chiroyli bo'ladi.

Yozda juda issiq

bo'ladi, kuzda esa

pishib yetilgan mevalarni terishadi, daraxtlardan barglar to'kiladi.

Jak o'qituvchining

gapiga quloq

solmasdan o'rtoqlari

bilan gaplashib

o'tirardi. O'qituvchi

Jakdan so'radi:

- Jak, menga ayt-chi,

mevalarni qachon terishar

ekan?

- Bog'bon uydalgida,

bog'da it bo'lmaganda, -

dedi Jak.

Fransuz tilidan Saydig'ani MUSAYEV tarjimasi.



1. U 1909 yil 12 dekabr Jizzax shahrida tavallud topdi. Ushbu ma'lumot qaysi shoirga tegishli?

A. Oybek

B. H.Olimjon

C. M.Shayxzoda

2. «Kuzatish», «Sog'inish», «Vaqt» she'rlar kimning qalamiga mansub.

A. Mirtemir

B. G'afur G'ulom

C. Xurshid Davron

3. Ushbu she'rning muallifini toping.

Ey ulug' yurt hurriyat davron muborakdir senga

O'zbekiston beg'ubor osmon muborakdir senga.

Necha yuz yil sen kurashding mustaqillik oni deb Sen aning topding ulug' imkon muborakdir senga.

A. Erkin Vohidov

B. Abdulla Oripov

C. Xurshid Davron.

4. «To'maris», «Temur Malik», «Iskandar Spitamen», «Karvon qo'ng'irog'i elchilar

kabi» asarlar kimning qalamiga mansub.

A. M.Shayxzoda

B. Oybek

C. Mirkarim Osim.

5. Buyuk o'zbek adibi Oybekning asil ism sharifi qanday bo'lgan?

A. Abdurau

C. 1941 yili Qarshida

8. Buyuk shoir Hamid Olimjonning umr yo'ldoshi kim?

A. Saida Zunnunova

B. Zulfiya

C. Nodirabegim

9. Mirtemirning ilk she'riy to'plami nechanchi yil nashr etilgan va nima deb nomlangan?

A. 1926 yil, «To'rg'ay»

B. 1927 yil, «Baliq ovi»

C. 1928 yil, «Shu'lalar qo'ynida».

10. «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg'oq», «Yaxshidir achchiq haqiqat», «Nido», «Ruhlar isyoni» kabi she'r va dostonlarning muallifi kim?

A. Shukrullo

B. Abdulla Oripov

C. Erkin Vohidov

Mahmudjon AZIMOV, Shayxontohur tumanidagi G'afur G'ulom nomli 169-o'rta maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi.

TEST SAVOLLARI

o'g'li

B. Muso Toshmuhammad o'g'li

C. Muso Muhammad o'g'li

6. O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning ilk she'riy to'plami nechanchi yil nashr etilgan va nima deb nomlangan?

A. 1950 yil, «Asr baxsi»

B. 1939 yil, «Xatarli yo'l»

C. 1939 yil, «Birinchi daftar».

7. Shoir va publitsist Xurshid Davron nechanchi yili va qayerda tavallud topgan.

A. 1905 yili Toshkentda

B. 1952 yili Samarqandda



Vali AHMADJON

KO'L BO'YIDA

Qo'shiq aytib Qorbobo,
Archazordan kelardi.
Kechikmay deb qutlashga,
Shamoldek tez yelardi.

Ko'l bo'yiga yetganda,
Toyib ketdi no'gahon.
Qopi uchib yelkadan,
Suvga tushdi. Eh, yomon!

Havo sovuq. Izg'irin.
Alangladi, hech kim yo'q.
Chora topdi shu zamon—
Hassa bo'ldi dastak— o'q.

Xo'rak ilmay «Qarmoq»qa
Suv tomon shoshib otdi.
Sal o'ynagach po'kagi,
Zo'r berib ko'kka tortdi.

Voh, «o'lja»ki beqiyos,
Bor tashvishin unutdi.
Baroridan kelib ov —
Sovg'a qopini tutdi.

YANGI YIL

Kutdik seni intizor,
Yangi yiljon, yangi yil.
Yo'llaringga poyondoz,
Oppoq qorlar, yaxshi bil.

Mehmon bugun bizlarga,
Qorbobo-yu ko'k archa.
She'r, qo'shig'u gul tutib,
Sen-la qutlaydi barcha.

Kel, kelaqol davraga,
Qo'l berishib o'ynaymiz.
Birgalashib shod zamon,
Rejalarin o'ylaymiz.

Eski yillar sabog'i,
Bizga doim hamrohdir.
Kelajakka yo'llovchi,
Yillar yildan porloqdir.

Shotlar



ALLA

Bir qo'shiq bor olamda,
Yoqar har bir odamga.
Mashshoqsiz ham lol etar,
So'zni xuddi bol etar.

Oxirini tingl olmay,
Sehri ne, hech anglolmay,
Shirin orom olamiz,
Bu - qo'shiqchi onamiz.

Bolalar

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-3192
Gazetani
Muhabbat
MAXSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Marzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08

Durdona AVAZOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur
tumanidagi

85 - maktab o'quvchisi.

UMR

Sezdirmayin o'tadi yillar,
Ulg'aytirib inson yoshini.
Har fursatni g'animat bilgin,
O'qi, tutgin hunar boshini.

Bir yil o'tar xuddi bir kunday,
Kechagi kun xuddi bugunday.
Do'stim, bekor o'tgan kunlaring,
Qop-qorong'u, zimiston tunday.

Afsus, kunlar juda tez o'tar,
Har fursatning sarhisobin bil.
Yumushingni ertaga qo'yma,
Uni bugun, hozirdanoq qil.

Qalin o'rmonda bir ayyor
tulki yashar ekan. Uning nafi
shunaqayam buzuq ekanki,
quyonga ko'zi tushdimi,
tutvolib yemay qo'ymas, tovuq
yegisi kelsa, albatta qishloqdan
o'g'irlab kelarkan. Sichqon va
o'rdaklarning bolalarini-ku
rosa qiyratar ekan.

Kunlarning birida
tulkining to'satdan asal
yegisi kelib qolibdi va
asalarilarning uyasini qidirib,
uchragan har bir kovakka
qo'lini suqib ko'raveribdi.

O'rmon chetida bo'ronda
qulagan eman daraxti dumalab
yotar, undagi kavakdan
g'o'ng'illagan ovozlar
eshitilarkan. «Shu kavakda
asalarilarning uyasi bo'lsa
kerak» deb o'ylabdi tulki va
uyaning ichiga qo'lini suqibdi.
Uning bunday qo'polligidan
jahli chiqqan asalarilar jizillatib
chaqa boshlashibdi.

- Bo'ldi, chaqmanglar!

Tavba qildim, boshqa
qilmayman, - deya dod solibdi
tulki.

- Uyimizga beruxsat bostirib
kirganing yetmagandek,
bolalarimizning qishki ovqati -
asalimizni ham o'g'irlamoqchi
bo'lyapsan. Gunohni

qildingmi, jazosiga ham
chidagin-
da, -
deyishibdi
asalarilar.

Yuz-ko'zlari
shishib ketgan
tulki bir haftacha
uyasidan
chiqolmay,
inqillab yotibdi.

Bo'lgan voqeani
zag'izg'ondan eshitgan
o'rmon hayvonlari tulkiga
«o'g'rivoy» deb laqab
qo'yishibdi. Rosa ta'zirini
yegan tulki ochko'zligu
o'g'rilikni tashlabdi. Lekin
o'g'rivoy degan nomi bir
umrga qolibdi.

Gulnoz TOJIBOYEVA,
Sirg'ali tumanidagi 252 -
maktabning
5 - sinf o'quvchisi.

OCHKO'Z TULKI

BILAG'ON BOLALAR
DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida
uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga
yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va
topug'onligingizni sinash maqsadida harflar
tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi.
Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...
Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni
yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.

"MATEMATIKA" CHAYNIVORUQ

1 Qadimgi yunon matematigi
olim, geometriyada
qo'llaniladigan o'z nomi bilan
ataluvchi teorema muallifi.

2. Aylana nuqtasi va
markazi oralig'idagi
kesma.

3. Trigonometrik
funksiyalardan
biri.

4. Sinusning
o'z
argumentiga
qarab

o'zgarishini
ifodalovchi tasvir.

5. Matematika fani
sohasi. 6. Geometrik
shakllardan biri.

7. Muntazam ko'pburchak
markazidan tomoniga tushirilgan

perpendikulyar. 8. Algebrlik masalada
darajaga ko'tarilayotgan miqdor.

9. Matematikada isbot talab
qilinadigan haqiqat. 10.

Amallarni bajarishda
qo'llanilgan mexanik
hisob qurilmasi. 11.

Tomonlari teng
burchaklari

to'g'ri
bo'lmagan
shakl. 12. Bir

nuqtadan
chiqib ikki
nurdan hosil

bo'lgan shakl. 13.

To'g'ri burchakli
uchburchak tomoni. 14.

Trigonometrik funksiya. 15.

Sharning tekislik bilan
ajratilgan qismi.

Foziljon ORIPOV.

ORZULAR
QANOTIDA

Kundan-kun kamol topib,
Kuch-quvvatga to'laman.
Ilm olib, ulg'aygach,
Men jurnalist bo'laman.

Juda ko'pdir orzuim-
Sog' bo'lsin dadam, oyim.
Yurtimiz osmonida,
Tinchlik bo'lsin har doim.

Yulduz

ABDURAHMONOVA,
Toshkent shahar
Chilonzor tumanidagi
126 - maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.